

## Talabalar bilan ochiq muloqot

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi bilan hamkorlikda 2021- yil 20 -yanvar kuni "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisi Murojaatnomasi va Yoshlar forumida belgilangan ustuvorliklardan kelib chiqib, yoshlar oldida turgan dolzarb vazifalar" mavzusiga bag'ishlangan talabalar bilan ochiq muloqot tashkil etildi. Tadbirda O'zbekiston XDP viloyat kengashi O.Ravshanov, xalq deputatlari viloyat Kengashidagi O'zbekiston XDP guruhi a'zosi S.Kamilova, xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi deputati R.Murtazaev hamda viloyat partiya kengashi sektor mudiri Sh.Xudoyqulovalar so'zga chiqib, talaba yoshlarga mamlakatimizdagi bo'layotgan ulkan o'zgarishlar, Prezidentimizning Murojaatnoma hamda Yoshlar forumidagi ma'ruzalaridan kelib chiqib, deputatlar hamda yoshlar oldida turgan dolzarb vazifalar, viloyat hamda shahar hayotiga oid yangiliklar, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.



**TIQXMMI matbuot izmati**